

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlashi va rivojlanishi mexanizmi manfaatlar va maqsadlarning o'zaro bog'liqdir. O'zaro ta'sir jarayonida o'zaro ta'sir qiluvchi subyektlarning motivlari, maqsadlari, pozitsiyalari, ularning kuchlari va o'zaro ta'sir jarayoni ishtirokchilarining xatti-harakatlari algoritmini aniqlanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, o'zaro ta'sir tizimining mohiyati o'zaro bog'liq elementlarning munosabatlari o'zgaradigan almashinuv jarayonidir.

Har qanday xo'jalik yurituvchi subyektlar, xususan banklar va korxonalar, bank va real sektorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning rivojlanish nuqtalari bir xil ya'ni ikkala tomoning ham foyda olishdir, lekin uning o'zaro samarali hamkorlik tizimi va mexanizmisiz bunday natijaga erishib bo'lmaydi.

Natijada, bank va real sektorlar o'rtasidagi moliyaviy hamkorlik-bu qaramaqarshi tomonning imkoniyatlari va takliflarini hisobga olgan holda amalga oshiriladigan hamda umumiyligi maqsadlarga erishishga qaratilgan potensial, rejalashtirilgan, boshlangan real harakatlar majmuidir.

Moliyaviy hamkorlikning natijasi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini o'zaro ta'minlashga erishiladi;
- o'zaro rivojlanishni ta'minlash mumkin bo'ladi;
- davlatning iqtisodiy rivojlanishiga erishiladi;
- ijtimoiy muhit yaxshilanadi, aholining daromadlari o'sadi.

Banklar va korxonalar o'rtasidagi moliyaviy hamkorlikning umumiyligi ijobji natijasi (samarasi) bu faoliyat ko'lamenti kengaytirish, kapital to'plashni tezlashtirish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash hamda xizmatlar ko'rsatish, ishlab chiqarishni ta'minlash jarayonini tezlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-noyabr kuni bank tizimida transformatsiya va xususiyashtirish jarayonlari muhokamasi bo'yicha yig'ilishi.
<https://president.uz/oz/lists/view/6875>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank xizmatlari ommabopligrini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori, 23.03.2018 yildagi PQ-3620-son.
3. Кудбиеев, Н.Т. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ ПРЕДПРИЯТИЙ С КОММЕРЧЕСКИМИ БАНКАМИ. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES, 3(10), 87-93.

**MOLIYA-BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA MINTAQAs IKTISODIY
SALOHIYATINING AHAMIYATI**

Jumabayev Adilbek Bazarbayevich
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat
universiteti stajyor-o'qituvchisi

Moliya-bank tizimini rivojlanishda maqsadida mavjud resurslardan foydalanishni baholash, tahlil qilish va rivojlanish zaxiralarini aniqlash asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash har bir hudud yoki iqtisodiy subyektlarning asosiy masalalardan biri bo'lib, murakkab raqobat

sharoitida mavjud iqtisodiy salohiyatdan foydalanish darajasiga bog'liq. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi **"O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida**gi PF-158-son Farmoni [1] qabul qilinib, uning 48-maqсад sanoatning "drayver" sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish belgilangan. Ushbu salohiyatni yuzaga chiqarish uchun mintaqani iqtisodiy salohiyatini oshirish lozim. Shunday ekan, mamlakat iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishda mintaqalarning o'rni yuqori hisoblanadi.

Mintaqaning iqtisodiy salohiyatini nazariy va uslubiy jihatlarini baholash uchun "salohiyat" tushunchasini ko'rib chiqishimiz zarur. "Salohiyat" so'zi lotincha "potentia" so'zidan kelib chiqib, kuch-qudrat, imkoniyat ma'nosini bildiradi va lug'atda "salohiyat" tushunchasi vakolat, qobilyat, iqtidor, imkoniyatlar va manbalar sifatida talqin etiladi. Y.A.Reanovich "salohiyat" tushunchasini yagona ma'noga ega emasligini ta'kidlab, bu tushuncha mo'ljallangan maqsadga erishish uchun foydalanish mumkin bo'lgan imkoniyatlar va resurslar yig'indisi ekanligini ta'kidlagan [2]. G.B.Shanazarova fikricha, "Salohiyat" tushunchasi lotincha "potentia" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "imkoniyat, kuch, kudrat" degan ma'nolarni bildiradi, deb ta'kidlagan [3]. Bir qator iqtisodiy lug'atda "salohiyat" tushunchasi "mavjud vositalar majmui", "har qanday sohadagi imkoniyatlar" mavjud manbalar, vosita va zahira sifatida baholanadi.

Yuqoridagilar asosida xulosa qilsak, iqtisodiy salohiyat barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun mavjud resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri joylashtirish va tashqi muhit bilan o'zaro iqtisodiy munosabatlar asosida iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini anglatadi. Demak, iqtisodiy salohiyatni o'rganish, uning ilmiy-nazariy mohiyatini ochib berishda mintqa iqtisodiy salohiyatini alohida qarab o'tamiz. Shunday bo'lsa-da, salohiyat so'zi iqtisodiy nuqtai nazaridan o'rganilganda olimlar uni mamlakat, mintqa va korxona darajasiga qarab turlicha talqin etadilar.

Shuningdek, T.G.Xramsovaning tadqiqotlarida hududlarning iqtisodiy salohiyatini mavjud resurslar holati, ularning bahosi va ulardan foydalanish darajasiga bog'liqligiga alohida e'tibor qaratgan [4]. Demak, mintaqaning iqtisodiy salohiyatiga mavjud resurslar holati ta'siri yuqori bo'lib, mavjud resurs salohiyatida to'g'ri foydalanish asosida iqtisodiy samara ta'minlanadi. Shuningdek, hududlar iqtisodiyotini ixtisoslashuv darajasi ham mavjud iqtisodiy salohiyat asosida baholanadi. Hududlarni barqaror rivojlantirishda ishlab chiqarish-resurs salohiyatiga ham alohida e'tibor berish zarur. Bu esa, yuqoridagi muallif tadqiqotlaridan chetda qolgan. N.I.Rustamov va M.Sh.To'xtayevalar tomonidan sanoat korxonalarida hudud salohiyati resurslardan foydalanishning nazariy asoslari orqali yoritilgan va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish asoslari baholangan [5]. Demak hududlarni iqtisodiy imkoniyatlarini baholashda mavjud resurslar va ulardan foydalanish darajasi, zahiralar, ishlab chiqarish kuchlari joylashuvi, innovatsion faoliyatni rivojlanganlik darajasi, aholi soni va salohiyatiga alohida e'tibor berish zarur.

Fikrimizcha, moliya-bank tizimini rivojlantirish uchun mintaqaning iqtisodiy salohiyati mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish asosida iste'molchilar talabini qondiradi va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydi. O'rganilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki resurs salohiyati bo'yicha yagona ta'rif mavjud emas, lekin resurs salohiyati umumiy iqtisodiy salohiyat sifatida ham baholangan bo'lib, lekin bu qarashda kamchilik mavjud bo'lib resurs salohiyati umumiy iqtisodiy salohiyatni alohida elementi hisoblanadi.

Mamlakatda mintaqalarning iqtisodiy holati nomutanosibligi ham hududlarning iqtisodiy salohiyatiga bog'liq. Mintaqaning iqtisodiy salohiyati mehnat salohiyatiga, infratuzilma holati, tarmoqlarning rivojlanish darajasi va innovatsiyalarni amaldagi holatiga bog'liq. Hududlarning ishlab chiqarish tuzilmalari rivojlanishi natijasida mehnat resurslariga bo'lgan talab ham o'zgarib bormoqda. Bu bevosita ishchi xodimlarni bilimi, malakasi, ko'nikmasi va tajribasiga tayangan holda mehnat salohiyatini yaxshilashga bog'liqligini ko'rsatmoqda. Demak, yuqoridagi tadqiqotlarda mintaqaning iqtisodiy salohiyatini amal qilishini ta'minlovchi asosiy omil mehnat salohiyati hisoblanib, mavjud resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri joylashtirish va innovatsion samaradorlikni ta'minlovchi asosiy omil ekanligini ko'rishmiz umkin.

Shuningdek, mehnat salohiyatini o'sishi hududlarda ilmiy tadqiqot va innovatsion salohiyat o'sishini ta'minlovchi omil hisoblanadi. Bu esa, hududlar iqtisodiy salohiyatini to'liq baholashda ilmiy salohiyat mezonini ham ilmiy-uslubiy jihatlarini ochib berishni talab etmoqda. N.M.Polyanksaya, A.A.Kolesnyak, Y.I.Kovolenkolar tadqiqotlarida ilmiy salohiyat tushunchasiga alohida e'tibor qaratilib, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi mavjud resurslardan foydalanish darajasiga va ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalariga bog'liqligi ta'kidlangan [6]. Fikrimizcha, yuqoridagi tadqiqotlarda mintqa salohiyatini asosiy tendensiyalari va ilmiy salohiyatni baholash asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini o'rgandik. Hududlarni iqtisodiy rivojlanishida ham innovatsiyalar alohida ahamiyat kasb etib, ularni amaliyatga bozor talabi asosida joriy etilishi mavjud salohiyatdan foydalanish samaradorligini oshiradi. Bunda asosiy e'tiborni hududlarni innovatsion rivojlanish darajasi, innovatsion mahsulotlarni umumiy mahsulot hajmidagi salmog'i o'zgarish tendensiyalariga qaratishimiz zarur.

Bugungi kunda hududlarning iqtisodiy rivojlanishida ilm-fan rivoji bilan birga mahsulotlar iste'moli, ya'ni bozor salohiyati o'zgarishi ham mavjud iqtisodiy salohiyatdan foydalanishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Dunyo mamlakatlarida mintaqaning iqtisodiy salohiyatidan foydalanishda texnologiya, mehnat, resurs mezonlari bilan birga marketing va innovatsion salohiyat yuqori ahamiyatga ega. Shuni inobatga olgan holda, hududlarni marketing faoliyatini rivojlantirish, uning instrumentlarini maksimal qo'llash va mavjud resurslardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bozor salohiyati hududdagi savdo aylanmasi va ko'rsatilgan xizmatlar hajmi asosida ifodalanib, bunga bevosita eksport va import ko'rsatkichlari o'zgarishini ham kiritish zarur. Yuqoridagilar

bilan birga mehnat salohiyati hududdagi mavjud resurslar tarkibi, ularning ma'lumoti va ishsizlik darajasi kabi ko'rsatkichlarda baholanadi. Bu omil iqtisodiyotning bevosita rivojlanishiga ta'sir ko'rsatib, yuqori texnologiyalar tarmoqlarda ilmiy, innovatsion-texnologik rivojlanishning asosi hisoblanadi.

Yuqoridagilar asosida xulosa qilsak, hududning iqtisodiy salohiyatini belgilashda ikki yondashuvga e'tibor qaratish zarur. Jumladan, resursli hamda natijali yondashuvlar asosida iqtisodiy salohiyatni o'rganamiz. Bunda, dastlab hududning resurs salohiyatini tadqiq qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki, mavjud resurslar o'z navbatida mintaqaga iqtisodiyotini ixtisoslashuv darajasini hamda ustuvor omillarini belgilaydi. Bu o'rinda Qoraqalpog'iston Respublikasi turizm salohiyati, ishlab chiqarish-resurs salohiyati bo'yicha yetakchi mintaqalardan biri hisoblanadi. Demak, moliya-bank tizimini rivojlantirish uchun resurslarga va ulardan foydalanish holatiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/6600413>
2. Реанович Е.А. Смысловые значения понятия «Потенциал». // Международный научно-исследовательский журнал. Т.2, №7, 2019. – 14-15 с.
3. Shanaazarova G.B. Sanoat korxonalarining innovatsion salohiyatini baholashning ayrim nazariy masalalari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali. №4, iyul-avgust, 2017-yil.
4. Храмцова Т.Г., Храмцова О.О. Тенденции развития потенциала регионального потребительского рынка. // Вестник НГУЭУ, №2, 2019 г. - 162–174 с.
5. Rustamov N.I., To'xtayeva M.Sh. Sanoat korxonalarida hududiy resurs salohiyatidan samarali foydalanish yo'llari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali, №6, noyabr-dekabr, 2020-yil. 93-99 b.
6. Полянкая Н.М., Колесняк А.А., Коволенко Е.И. "Научный потенциал как фактор инновационного социально-экономического развития регионов" статья в журнале Вопросы инновационной Экономики, №12, 2022 г. - 519-534.

LIZINGLI INVESTITSIYALASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

*i.f.d, professor Kadirov Abdurashid Madjidovich
TDIU huzuridagi "O'zbekistonni iqtisodiyotini rivojlantirishning
ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi,
Axmedieva Aliya Toxtarovna
TDIU DSc, professori.v.b*

Bugungi kunda taraqqiy etgan mamlakatlarda lizingli investitsiyalash mexanizmini takomillashtirishning makroiqtisodiy jihatlari tadqiq etilganiga qaramay, lizing kompaniyalari tomonidan investitsiyalashning yangicha mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanmoqda. Jahonda lizingli investitsiyalash mexanizmini takomillashtirishning xududiy jihatlarini tadqiq etishda asosiy kapitalga investitsiyalar ko'rinishidagi moliyaviy oqimlarni